**Abstract:** The article provides detailed information about the development of agrotourism and its types, characteristics and concepts in the countries of the world. The importance of agrotourism in the development of the tourism sector, living in rural areas, tourist objects, activities and several other types of tourism are analyzed. The main goals and aspects of agrotourism and various forms of active participants in this field are described. In addition, information is given on the development of countries in the field of tourism, such as the mechanism of widespread management of agrotourism in the world, its role in the development of tourism, the characteristics and development of agrotourism in different countries, practice models in the field of tourism, the combination of national tourism and ecological tourism.

**Key words:** tourism industry, domestic tourism, agro-tourism activities, rural tourism, investment mechanism, economic levers, organizational-economic mechanism.

**Аннотация:** В статье представлена подробная информация о развитии агротуризма, его видах, характеристиках и понятиях в странах мира. Анализируется значение агротуризма в развитии туристической отрасли, проживания в сельской местности, туристических объектов, видов деятельности и некоторых других видов туризма. Описаны основные цели и аспекты агротуризма и различные формы активных участников в этой сфере. Кроме того, дана информация о развитии стран в сфере туризма, такая как механизм широкого управления агротуризмом в мире, его роль в развитии туризма, особенности и развитие агротуризма в разных странах, модели практики. в сфере туризма - сочетание национального туризма и экологического туризма.

**Ключевые слова:** туристическая отрасль, внутренний туризм, агротуристская деятельность, сельский туризм, инвестиционный механизм, экономические рычаги, организационно-экономический механизм.

## KIRISH

Dunyo miqyosida turizm sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli tarkibiy islohotlar jarayonida xalqaro turizmning rivojlanishi uchun dastlabki shart-sharoitlarni tarkib topishiga asos yaratuvchi agroturizm faoliyatini hududiy tashkil etish, uning tuzilishi va rivojlanishi bilan bog'liq jihatlar hamda hududiy tuzilmalar tarkibidagi agroturizm faoliyatini boshqarish mamlakatlar iqtisodiyotini makroiqtisodiy muvozanatda rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

So'nggi 60 yil davomida turizm sohasi doimiy ravishda kengayib, diversifikatsiyalanib bormoqda va dunyo mamlakatlari turizm sohasining yirik hamda jadal rivojlanayotgan sohalaridan biriga aylanib ulgurdi.



Bugungi kunda turizm sohasi makro darajadagi turistik majmuaning muhim elementi va ko'pchilik uchun sevimli faoliyat turidir. Shu bilan birga, uning rivojlanish resursi sifatida go'zal manzaralar, noyob tarixiy va madaniy yodgorliklar, diqqatga sazovor joylar, an'anaviy qishloq aholi punktlari va turar joylari, milliy liboslar va oshxonalar hisoblanadi. Zamonaviy agroturizmning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, yirik shaharlar aholisining dam olish ta'tillarini tabiatda o'tkazish istagi, milliy bog'larga, qo'riqxonalariga va qishloq joylariga tashrif buyurishni tanlashidir. Agroturizmning boshlanishi XIX asrning oxiriga to'g'ri keladi. Odamlar qisqa vaqt davomida qarindoshlarini ziyorat qilish, shaharning shovqin-suronidan qochish, qishloqqa kelish uchun vaqtincha shaharni tark etishni boshladilar <sup>[1]</sup>.

O'tgan asrning 80-90-yillarida qishloq joylarida ta'tillar, yotoq va nonushta (nonushta bilan) hamda fermer xo'jaliklariga tijorat sayohatlari juda ommalashdi. So'nggi paytlarda agroturizm tobora rivojlanib, shahar aholisi orasida unga bo'lgan talab ortib bormoqda. Agroturizm AQSH, Kanada, Avstraliya va Yevropa mamlakatlarida juda yaxshi rivojlangan, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda turizmning ushbu yo'nalishi rivojlanishning dastlabki bosqichlarida bo'lsa-da, mamlakatimizda agroturizm faoliyati bugungi kunda faqat nazariy jihatdan shakllanmoqda xolos <sup>[2]</sup>.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekistonda turizm va zamonaviy sivilizatsiya masalalari diyorimizning bir qator olimlari tomonidan o'rganilgan bo'lib, ushbu mavzuda monografiyalar, kitoblar yozilgan. Ularning asarlarida O'zbekistonning turizm va zamonaviy sivilizatsiya masalalari boy daliliy materiallar asosida keng yoritilgan. O'zbekiston va xorijiy olimlar turizmni rivojlantirish muammolari doirasida uning turli jihatlarini bilan shug'ullanganlar. Bular jumlasiga M.B.Birjakov, V.S.Bogolyubov, V.P.Orlovskaya, S.A.Bistrov, M.G.Voronsova, Yu.F.Volkov, S.A.Sevastyanova, V.S.Senin, A.D.Chudnovskiy, T.T.Xristov, mahalliy olimlardan I.S.Tuxliyev, N.T.Tuxliyev, M.Q.Pardayev, A.N.Norchayev, B.To'rayev, M.R.Usmonov, D.K.Usmanova, X.M.Mamatqulov, M.Xoshimov, R.Hayitboyev, N.Y.Ibadullayev, R.S.Amriddinova, B.Sh.Safarov, L.Ivatov, M.Aliyeva, F.K.Kamilova, S.S.Ro'ziyev va boshqa ko'plab olimlar ham o'zlarining ilmiy takliflari bilan respublikamiz turizmdagi muammolarini bartaraf etishning nazariy amaliy asoslarini yaratilishiga muhim hissa qo'shishgan <sup>[3-9]</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, statistik jadvallardan, qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalangan holda turizm sohasini rivojlantirishda agroturizmning ahamiyati, turistik obyektlar, agroturizm sohasini rivojlantirish muammolari, shuningdek, agroturizmning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida ishtiroki, qishloq hayotida yashash, etnografik va madaniy qadriyatlar, tabiat qo'ynida dam olish, sport turizmi va boshqa turlarning asosiy jihatlarini aks ettirish bo'yicha fikr va mulohazalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Agroturizm faoliyati qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayonida ishtirok etish, qishloq oilasi hayotida yashash, shuningdek, qishloq jamiyatida amaliy ishtirok etish bilan bog'liq, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi yoki etnografiya sohasidagi, chorva hayvonlarini parvarishlash jarayonida bevosita ishtirok etish istagiga asoslanuvchi, ma'lum bir vaqt oralig'ida tinch va sokin hayot tarzida yashash bilan bog'liq ehtiyojlarni, qishloq muhit bilan bog'liq ehtiyojlarni qondirish kabi asosiy xususiyatlarni qamrab oladi.

Dunyo bo'ylab turizm sohasi faol rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda. Shu bilan birga, an'anaviy (faol va ommaviy) dam olish shakllari bilan parallel ravishda yangi, turli xil "yashil" sayohatlar tashkil etilmoqda: "Uch S" formulasi bo'yicha dam olish o'rniga, "Uch L" formulasi taklif etiladi. "Yashil" hayot g'oyalarining keng tarqalishi turizm sohasiga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda <sup>[10]</sup>.

"Yashil sayohat" dunyodagi eng mashhur turizm turlaridan biri hisoblanib, uni bugungi kunda "yashil qishloq turizmi" (green rural tourism) yoki "agroturizm" (agritourism, farm tourism) nomlari bilan ham ataladi.

Xorijiy tadqiqotchilarning izlanishlarida agroturizm tushunchasi xilma-xil, keng va ba'zan bir-biriga zid bo'lgan turli xil ta'riflarning sintezidan iboratdir. Agroturizm faoliyati geografik jihatdan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi yoki etnografik qadriyatlar mavjud bo'lgan ma'lum hududlar bilan bog'langan, shuning uchun uni rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqish bilan bog'liq "agroturizm" konsepsiyasini ishlab chiqish mintaqaviy shart-sharoitlar va ijtimoiy-iqtisodiy shartlarga muvofiqdir. Shu bois ushbu faoliyat turiga mutaxassislarning yondashuvlariga qarab agroturizm tushunchalari turli mamlakatlarda sezilarli darajada farqlanadi. Mavjud xorijiy manbalarda keltirilgan ta'riflarga asoslanib, agroturizmni geografik va demografik nuqtayi nazardan ko'rib chiqish mumkin. Bunday yondashuvga ko'ra agroturizm aholi zichligi kam bo'lgan hududlardagi, ya'ni shahar chegaralaridan tashqaridagi turizmdir. Rekreasion nuqtayi nazardan agroturizm faoliyatining mahsuloti – bu qishloq uyida yashashdan boshlab, tabiatga yo'naltirilgan dam olish tadbirlari, sarguzashtli yurishlar va mahalliy aholi faoliyatida sayyohlarning bevosita ishtiroki bilan tugaydigan turli xil xizmatlar to'plamidir <sup>[10]</sup>.



Agroturizmning asosiy vazifasi insonning aqliy va jismoniy holatini samarali yaxshilash, jismoniy va aqliy zo'riqishni tarqatishdir. Iqtisodiy funksiyalar orasida qishloq joylarining o'ziga xos resurslarini sotish bozorini yaratish ularning faoliyati uchun moliyaviy omillarni paydo qilish va qishloq joylarining iqtisodiy o'sishini rag'batlantirish kabilar o'rin egallagan. Agroturizm – bu birgalikdagi faoliyat, chunki agroturistik faoliyatning o'zi turistik dam olishning barcha turlarini to'liq ta'minlay olmaydi, shuning uchun u qishloq sayyohlariga xizmat ko'rsatadigan boshqa tuzilmalar bilan hamkorlikka muhtoj <sup>[11]</sup>.

Agroturizmning har bir turi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning har biri aniq maqsadlarni ko'zlaydi hamda muayyan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan korxonalarning turli shakllariga ega (1-jadval).

**1-jadval: Agroturizmning turlari va infratuzilmasi**

Agroturizm turlari	Infratuzilma	Turar joylar
Birlashgan Farzand Sog'lom turmush Tarbiyaviy	Muzeylar. Badiiy va etno-folklor jamoalari. Xalq hunarmandchiligi va hunarmandchilik ishlab chiqarish markazlari	Fermer xo'jaliklari va mulkdorlar tasarrufidagi turar joyi. Sayyohlarni qabul qilish uchun maxsus jihozlangan qishloq mehmonxonalarining xonalaridagi turar joy. Egasi bilan bir uyda yoki qishloq xo'jaligi hududida binolar majmuasidagi apartmentlar. Qishloq joylarida yoki kichik shaharlarda joylashgan tarixiy binolarda (qal'alar, saroylar, monastirlar)gi turar joy
Etnografik Tarbiyaviy Gastronomik Diniy	Xalq hunarmandchiligi va hunarmandchilik ishlab chiqarish markazlari Ta'lim muassasalari. Muzeylar Umumiy ovqatlanish korxonalari. Firmalar, oziq-ovqat ishlab chiqarish korxonalari	Yotoqxonalarida, monastirlarda, qishloq uylaridagi turar joylarda Fermer xo'jaliklari va mulkdorlar tasarrufidagi turar joy Bir oila yoki sayyohlar guruhi tomonidan butun uyni ijaraga olish
Sarguzashtli Sport Mehnat Tadbirlar Ekologik	Transport korxonalari	Faol sport turlariga ixtisoslashgan sport inshootlaridagi lagerlar. Mulkdorlar yoki xususiy lager hududidagi chodir shahardagi turar joylar

Agroturizmning har xil turlarining mavjudligi turli xil qiziqishlarga va turli daromad darajalariga ega bo'lgan, jinsi va yoshi tarkibida farq qiladigan ko'plab iste'molchilarni jalb qilishga yordam beradi.

Bir qator davlatlarda agroturizm turizm sohasining yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib, u milliy turizmni rivojlantirish konsepsiyalarida o'z aksini topgan. Turli xil maqsadlarni ko'zlagan va turli xil vazifalarga yo'naltirilgan, muayyan sharoitlarga muvofiq ishlab chiqilgan va mamlakatlarning turli guruhlarida qo'llaniladigan agroturizmning bir nechta ahamiyatli konsepsiyalari mavjud. Adabiyotlar tahliliga ko'ra, jahonda agroturizmni rivojlantirishning asosiy tushunchalari uch guruhga ajratiladi (3-jadval).

**3-jadval: Agroturizm rivojlanishning asosiy konsepsiyalari <sup>[6]</sup>**

1. Mulkdorlar va kichik oilaviy mehmonxonalar bazasida agroturizm korxonalarini tashkil etish	Mavjud qishloq uy-joy fondi, qishloq xo'jaligi va ixtisoslashtirilgan obyektlarga asoslangan xususiy kichik mehmonxonalar	Ferma. Asalarichilik. Baliqchilik sanoati. Sport markazi. Kemping va hokazo
2. Qishloq joylarda yirik va o'rta xususiy agroturizm obyektlarini qurish	Ixtisoslashgan xususiy mehmonxonalar, markazlar	Madaniy va etnografik markazLAR. Urf-odatlariga asoslangan agroturistik qishloq
3. Fermer xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi kooperativlarida qishloq xo'jaligi parklarini yaratish	Milliy qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish texnikalarini namoyish qilish	Agrofirma parki

Qishloq hududlarida ushbu yo'nalishdagi masalalarni amaliy hal qilishda yetakchi rol mahalliy jamoalarga beriladi. So'nggi paytlarda Yevropaning bir qator mamlakatlarida turizmni rivojlantirishning milliy konsepsiyalarini ishlab chiqishda ekologik agroturizmning turli sohalarini rivojlantirishda hududiy o'zini-o'zi boshqarish va mahalliy jamoalarning yuqori roli alohida qayd etildi <sup>[12]</sup>.

Qishloq turizmining ustun turlariga ega bo'lgan anglo-amerika modelidagi mamlakatlarda qishloq turizmining tarqalish geografiyasi 4-jadvalda keltirilgan.



4-jadval: Qishloq turizm mintaqalarining tarqalish geografiyasi

Mamlakatlar	Hududlar	Qishloq turizmi turi
Buyuk Britaniya	Uels Shotlandiya Shimoliy Irlandiya	Sog'liqni saqlash turizmi Mehnat turizmi Ta'lim turizmi Sport turizmi Ekologik turizm Bolalar turizmi Ta'lim turizmi
AQSh	Kaliforniya Shimoliy Karolina Nebraska	Sog'liqni saqlash turizmi Bolalar turizmi Sarguzasht turizmi Mehnat turizmi Ta'lim turizmi Sport turizmi Ekologik turizm Hodisalar turizmi
Kanada	Alberto provinsiyasi Ontario Manitoba Kvebek Yangi Brunsvik Saskachevan	Sog'liqni saqlash turizmi Bolalar turizmi Sarguzasht turizmi Mehnat turizmi Ta'lim turizmi Sport turizmi Ekologik turizm Hodisalar turizmi

Hozirgi davrda rivojlangan Yevropa mamlakatlarida qishloq turizmi tobora ommalashib bormoqda, u plyaj turizmidan keyin ikkinchi o'rinda turadi va butun turizm sanoati foydasining 30 foizini tashkil qiladi. Qishloq turizmining tarqalishi geografiyasi Yevropa modelidagi mamlakatlarda qishloq turizmining ustun turlari 5-jadvalda keltirilgan <sup>[13]</sup>.

5-jadval: Qishloq turizm mintaqalarining tarqalish geografiyasi

Mamlakatlar	Hududlar	Qishloq turizmi turlari
Fransiya	Fransiyaning Alp tog'lari, Vosges, Yura mintaqasi, O'rta yer dengizi sohillari	Ta'lim turizmi. Gastronomik turizm. Bolalar turizmi. Sog'liqni saqlash turizmi. Mehnat turizmi. Sport turizmi. Ekologik turizm. Ta'lim turizmi
Italiya	Toskana Sisiliya Trentino	Gastronomik turizm. Sog'liqni saqlash turizmi. Bolalar turizmi. Mehnat turizmi. Ta'lim turizmi. Ekologik turizm. Ta'lim turizmi
Ispaniya	Syerra de Tramuntana (Mayorka) hududlari, Kataloniya Andalusiya	Sog'liqni saqlash turizmi. Mehnat turizmi. Ta'lim turizmi. Gastronomik turizm. Sport turizmi. Ekologik turizm. Sarguzasht turizmi
Germaniya	Shimoliy Reyn-Vestfaliya, Baden-Vyurtemberg viloyati, Bavariya	Sarguzasht turizmi. Sog'liqni saqlash turizmi. Mehnat turizmi. Ta'lim turizmi





Vengriya	Vengriya janubi-gʻarbiy hududi, Balaton hududi, Tokay hududi	Gastronomik turizm. Sport turizmi. Bolalar turizmi. Etnografik turizm. Sogʻliqni saqlash turizmi. Taʼlim turizmi. Hodisalar turizmi
Polsha	Pomeraniya Buyuk Polsha Voyevodaligi (mintaqa) Lubus Voyevodaligi	Sogʻliqni saqlash turizm. Mehnat turizmi. Taʼlim turizmi. Sport turizmi. Ekologik turizm
Avstriya	Tirol mintaqasi Shtiriya. Karintiya	Bolalar turizmi. Sarguzasht turizmi. Sogʻliqni saqlash turizmi. Mehnat turizmi. Taʼlim turizmi. Gastronomik turizm. Haj turizmi. Sport turizmi. Ekologik turizm
Chexiya	Janubiy Moraviya Krkonoshe qoʻriqxonasi hududi Pilsen viloyati (Chexiya Respublikasining gʻarbida)	Sarguzasht turizmi. Sogʻliqni saqlash turizmi. Mehnat turizmi. Taʼlim turizmi. Gastronomik turizm. Ekologik turizm. Bolalar turizmi. Hodisalar turizmi

Agroturizm faoliyatining turli mintaq va mamlakatlardagi rivojlanish xususiyatlariga bog'liq holda jahonda agroturizmning rivojlanish modellarini quyidagilarga ajratiladi (6-jadval):

1. **Britaniya modeli.** Ushbu modelda agroturizm fermerlarning uyida yoki alohida binolarda yashashga ixtisoslashtirilgan va bilimlarni kengaytirish hamda otda sayr qilish va golf o'yinlarida ishtirok etishga asoslanadi. Britaniya modelida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yaratish jarayonida bevosita ishtirok etish nazarda tutilmaydi.
2. **Fransuz modeli.** Ushbu modelda agroturizm alohida kottejlar yoki yozgi uylarda yashashga asoslanadi va ekoturizm, suv turizmi hamda baliq ovlashga asoslanadi. Fransuz modelida ham qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yaratish jarayonida bevosita ishtirok etish nazarda tutilmaydi.
3. **Italyan modeli.** Ushbu modelda agroturizm alohida kempinglar (qishloq mehmonxonalari) yoki fermerlarning uyida yashashga asoslanadi va ekoturizm, bilim olish, tog'-chang'i, plyaj hamda baliq ovlashga asoslanadi. Italyan modelida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yaratish emas, balki yig'ib olish jarayonida bevosita ishtirok etish nazarda tutiladi <sup>[14]</sup>.
4. **Nemis modeli.** Ushbu modelda agroturizm fermerlarning uyida birgalikda yashashga hamda pikniklar qilish, baliq ovlashga asoslanadi. Nemis modelida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yaratish jarayonida bevosita ishtirok etish faqatgina xo'jalik ishlariga yordamlashishni nazarda tutadi.
5. **Avstriya modeli.** Ushbu modelda agroturizm fermerlarning uyida dehqonlar ovqati asosida yashashga asoslanadi va baliq ovlash hamda otda yurish ko'zda tutiladi. Avstriya modelida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yaratish jarayonida bevosita ishtirok etish faqatgina tomorqada ishlashni nazarda tutadi.
6. **Kipr modeli.** Ushbu modelda agroturizm milliy qishloqlarda mahalliy ovqatlarini iste'mol qilish va piyoda, otda, velosipedda yurishga hamda etnik odatlarga asoslanadi. Kipr modelida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yaratish jarayonida bevosita ishtirok etish faqatgina hosilni yig'ib olish jarayonidagi ishtirokni nazarda tutadi.
7. **Finlandiya modeli.** Ushbu modelda agroturizm alohida kottejlarda yashashga va suv turizmi, baliq ovini nazarda tutadi. Finlandiya modelida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yaratish jarayonida bevosita ishtirok etish nazarda tutilmaydi.
8. **Bolgariya modeli.** Ushbu modelda agroturizm fermerlarning uyida birgalikda yashashga hamda madaniy, bilim olish, ekologik hamda sport turizmiga asoslanadi. Bolgariya modelida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yaratish jarayonida bevosita ishtirok etish ixtiyoriy.



6-jadval: Agroturizm rivojlanishining xalqaro modellari

Agroturizm modellari turlari	Yashash	Ovqatlanish	Dam olish va turizm turlari	Qishloq xo'jaligi faoliyatidagi ishtirok
Britaniya modeli	Fermerlarning uyida	Faqat nonushta	Bilim olish va ekologik turizm	Ko'zda tutilmagan
	Alohida binolarda	O'z-o'ziga xizmat	Otda yurish, golf o'yini	Ko'zda tutilmagan
Fransuz modeli	Alohida kottej	O'z-o'ziga xizmat	Ekologik turizm	Ko'zda tutilmagan
	Yozgi uylar	O'z-o'ziga xizmat	Suv turizmi, baliq ovi	Ko'zda tutilmagan
Italyan modeli	Kempinglar, qishloq mehmonxonalari	To'liq ovqatlanish	Ekologik, bilim olish, tog'-chang'i turizmi	Ko'zda tutilmagan
	Fermerlarning uyida yoki alohida binolarda	Gastronomik turlar dasturi doirasida	Ekskursiyalar, baliq ovi, plyaj turizmi	Hosilni yig'ib olish
Nemis modeli	Fermerlarning uyida	Uy egalari bilan birgalikda	Pikniklar, baliq ovi	Xo'jalik ishlarida yordam berish
Avstriya modeli	Fermerlarning uyida	Dehqonlar ovqati	Baliq ovi, otda yurish	Tomorqada ishlash
Kipr modeli	Milliy qishloq	Qishloq ovqati yoki tavernalar	Piyoda, otda, velosipedda yurish va etnik odatlar	Hosilni yig'ib olish
Finlyandiya modeli	Alohida kottej	O'z-o'ziga xizmat	Suv turizmi, baliq ovi	Ko'zda tutilmagan
Bolgariya modeli	Uy egalari bilan bir uyda	Uy egalari bilan birgalikda	Madaniy, bilim olish, ekologik hamda sport turizmi	Ixtiyoriylik

Ko'pchilik Yevropaliklarning fikricha, agroturizm faoliyati dengiz va tog'-chang'i kurortlari kabi daromadli faoliyat hisoblanmasa-da, barqaror va ishonchli daromad keltiruvchi faoliyat hisoblanadi. Agroturizm bugungi kunda Yevropada turistik faoliyatning eng mashhur turlaridan biri hisoblanib, turistik faoliyatdan olinayotgan umumiy daromadning 20 %igacha bo'lgan qismini tashkil etmoqda.

Yuqorida ko'rib o'tilgan xorijiy mamlakatlarning agroturizm faoliyatidagi tajribalaridan hamda jahon mamlakatlarida qo'llanilayotgan agroturizmni rivojlantirish modellaridan mamlakatimizda turizmning ushbu faoliyat turini rivojlantirishda mahalliy shart-sharoitlar hamda tabiiy-iqlim sharoitlarni hisobga olgan holda foydalanish mumkin. Biroq turli mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlarini nazarda tutuvchi modellar va tajribalarni "ko'chirish" orqali faoliyatni yo'lga qo'yish uning samaradorligini ta'minlay olmaydi.

Mamlakatimizda agroturizmning ustuvor yo'nalishlari sifatida milliy urf-odatlar hamda hududlarning o'ziga xos jihatlarni o'z ichiga oluvchi milliy jihatlarni rivojlantirish orqali nafaqat ichki, balki agroturizmga yo'naltirilgan kirish turizmini ham rivojlantirish imkoniyatini kengaytiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Воскресенский, В. Ю. (2012). Международный туризм: учебное пособие для вузов. М.: ЮНИТИ.
2. Aliyeva M.T., Umarjonov A. (2005). Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti. –T.: Moliya.
3. Кабушкин, Н. И. (2007). Менеджмент туризма. Новое знание.
4. Богданов Е.И. (2005). Планирование на предприятии туризма/Учебное пособие. Спб.:Изд.д. Бизнес-пресс.
5. Балабанов И.Т., Балабанов А.И. (2004) Экономика туризма. –М.: Финансы и статистика.
6. Гуляев В.Г. (1996). Организация туристской деятельности. –Учебное пособие НОЛИДЖ, М.
7. Ефремова М.В. (2001). Основы технологии туристического бизнеса. Учебное пособие. –М.: –с-89.
8. Чайка, В. П., & Исаев, А. Г. (2007). Сельский туризм в устойчивом развитии сельских территорий. Экономика сельского хозяйства России, (11), –34-35.
9. Komilova, F. K. (2001). Xalqaro turizm bozori. O'quv qo'llanma T., –TDIU-2001.
10. Клицунова В. Зеленая альтернатива – сельский туризм. [Электронный ресурс]. URL: [http://agroedu.of.by/index.php?option=com\\_content&task=view&id=152](http://agroedu.of.by/index.php?option=com_content&task=view&id=152).
11. Никитина О. А., Кушнаренко Е. П. Уточнение понятийного аппарата в развитии теории и практики регионального сельского туризма // Вестник Чувашского университета. Изд-во ЧГУ им.И.Н. –Ульянова, –2010. С. 400–405.
12. Черманин В. В., Кундиус В. А. Проблемы и перспективы агротуризма в регионе // Журнал теоретических и прикладных исследований. [Электронный ресурс]. URL: <http://izvestia.asu.ru/2011/2-1/econ/06.ru.html>.
13. Здоров, А. Б. (2011). Агротуристский комплекс: формирование и развитие. –М.: Логос, –12, 25.
14. Mirzaev, A.T (2018) "The level of use of tourist attractions in the regions and the factors affecting them," Economics and Innovative Technologies: Vol. 2018: No.3,Article19.Available at: <https://uzjournals.edu.uz/iqtisodiyot/ vol2018/iss3/19>.
15. Ugli, X. S. Y. (2022, May). Agrotourism as a factor in the development of agrotouristic facilities in the republic of Uzbekistan. In International Conference on Research Identity, Value and Ethics (pp. 265-267).

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 1**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.